



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

O‘ZBEK TILIDA UYAT VA NOMUS KONSEPTLARINING FREYM-SEMANTIK TUZILISHI

Fayziyeva Aziza Anvarovna

Buxoro davlat universiteti, doktorant (PhD)

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek lingvomadaniyatining yadroviiy birliklari bo‘lgan uyat va nomus konseptlarining freym-semantik tuzilishi lug‘aviy, frazeologik va badiiy material asosida tahlil etiladi. Subyekt, kuzatuvchi, sabab, his holati va oqibatdan iborat besh freym elementi asosida ikki konseptning farqli qurilishi ko‘rsatiladi, leksemasiz holatlarni aniqlovchi freym ko‘rsatkichlari ajratiladi hamda metaforik qoliplar MIP protsedurasi bilan tasdiqlanadi.

Kalit so‘zlar: uyat, nomus, freym semantikasi, freym ko‘rsatkichi, konseptual metafora.

ФРЕЙМ-СЕМАНТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА КОНЦЕПТОВ «УЯТ» (СТЫД) И «НОМУС» (ЧЕСТЬ) В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Файзиева Азиза Анваровна

Бухарский государственный университет, докторант (PhD)

Аннотация

В статье анализируется фреймово-семантическая структура концептов uyat и nomus, ядерных единиц узбекской лингвокультуры, на узбекском лексикографическом, фразеологическом и художественном материале. На основе пяти элементов фрейма, а именно субъекта, наблюдателя, причины, эмоционального состояния и следствия, показано различное строение двух концептов, выделены фреймовые индикаторы безлексемных контекстов, метафорические модели верифицированы процедурой MIP.

Ключевые слова: уят (стыд), номус (честь), фреймовая семантика, индикатор фрейма, концептуальная метафора.

FRAME-SEMANTIC STRUCTURE OF THE CONCEPTS OF “UYAT” (SHAME) AND “NOMUS” (HONOUR) IN THE UZBEK LANGUAGE

Fayziyeva Aziza Anvarovna

Bukhara State University, Doctoral Student (PhD)

Abstract

The article analyses the frame-semantic structure of the concepts uyat and nomus, core units of Uzbek linguoculture, on Uzbek lexicographic, phraseological and literary material. Five frame elements, namely the subject, the observer, the cause, the emotional state and the consequence, reveal the different architecture of the two concepts; frame indicators identifying lexeme-free contexts are established, and metaphorical patterns are verified through the MIP procedure.

Keywords: uyat (shame), nomus (honour), frame semantics, frame indicator, conceptual metaphor.

O‘zbek lingvomadaniyatining axloqiy-hissiy yadrosini tashkil etuvchi **uyat** va **nomus** konseptlari milliy tafakkurda chuqur o‘rin tutadi. Ular shunchaki alohida leksemalar emas, balki insonning ijtimoiy xulq-atvorini boshqaradigan yaxlit kognitiv tizimdir. Badiiy matn ana shu tizimning eng boy namoyon bo‘lish maydoni sanaladi, zero muallif qahramon ruhiyatini tasvirlar ekan, konseptni atovchi leksemaning o‘zi bilan cheklanmay, uning butun freymini, ya‘ni ishtirokchilarini, sabab va oqibatlarini hamda tana belgilarini harakatga keltiradi. Mazkur maqolada uyat va nomus konseptlarining freym-semantik tuzilishi o‘zbek tilining lug‘aviy, frazeologik va badiiy materiali asosida beshta freym elementi orqali ochib beriladi hamda ularning metaforik asoslari tekshiriluvchi protsedura yordamida tahlil qilinadi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida mazkur konseptlarga ilmiy qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Xususan, uyat konsepti o‘zbek maqollari va frazeologizmlari materiali asosida obrazli, tushunchaviy hamda qadriyat bilan bog‘liq jihatlari bo‘yicha tahlil etildi [7; 196–201-b.]. G. Xolmurodova **shame** va **uyat** birliklarini qiyosiy planda o‘rganib, o‘zbekcha konseptning oila obro‘si va ijtimoiy tartibga solish bilan bog‘liq semantik qatlamlari inglizcha muqobililikidan ancha keng ekanligini asoslab berdi [13; 123–127-b.]. Shu bilan birga, **andisha** yapon tilidagi **giri** lingvokulturemasi bilan chog‘ishtirildi [4; 222–228-b.], **or-nomus** singari birliklarning tarjimada yakka leksik muqobil bilan berib bo‘lmasligi

tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan dalillandi [3; 106–112-b.], konsept tushunchasining o'zbek kognitiv tilshunosligidagi talqini ham maxsus yoritildi [1; 1223–1228-b.]. Biroq mavjud tadqiqotlarning uch jihati hanuz ochiq qolmoqda. Birinchidan, ular konseptlarni yakka holda yoki o'zga til birliklari bilan qiyosda o'rgangan bo'lib, uyat va nomus juftligi yagona freym modeli doirasida bir-biriga nisbatan tavsiflanmagan. Ikkinchidan, tahlil leksema ishtirok etgan kontekstlar bilan chegaralanib, konsept atovchi so'zsiz voqelanadigan holatlar, ya'ni freym ko'rsatkichlari muammosi kun tartibiga qo'yilmagan. Uchinchidan, metaforik qoliplar intuitiv tarzda ajratilgan bo'lib, ularni tekshiriluvchi protsedura asosida verifikatsiya qilish amalga oshirilmagan. Mazkur maqola ana shu uch bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning nazariy poydevorini Ch. Fillmorning freym semantikasi tashkil etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, so'z ma'nosini anglash uchun shu so'z mansub bo'lgan butun tajriba sxemasini, undagi ishtirokchilar va munosabatlarni faollashtirish taqozo etiladi [2; 111–137-b.]. Kognitiv yondashuvning umumiy tamoyillari o'zbek tilshunosligida Sh. Safarov tomonidan tizimli bayon qilingan [11]. Hissiy konseptlarning metaforik va metonimik tuzilishi haqidagi qarashlar Z. Kövecses ishlariga [5], hissiyot leksikasining madaniy xosligi to'g'risidagi xulosalar esa A. Vyerjbitska tadqiqotlariga [12] tayanadi. Tahlil uchun beshta freym elementi ajratildi. Bular holatni boshdan kechiruvchi subyekt, real yoki tasavvurdagi kuzatuvchi, holatni yuzaga keltirgan sabab, his holatining o'zi hamda undan kelib chiquvchi oqibatdir.

Tadqiqot materialini ***"O'zbek tilining izohli lug'ati"***dagi [9] **uyat** va **nomus** lug'aviy maqolalari hamda Sh. Rahmatullayev frazeologik lug'atidagi [8] uyat-nomus semantikali iboralar majmuasi tashkil etdi. Frazeologik lug'atning illyustrativ bazasi Oybek, A. Qahhor, S. Ahmad, P. Qodirov singari adiblar asarlaridan terilgani bois tahlil ayni paytda badiiy matn materialiga ham tayanadi. Lug'aviy kuzatuvlarning umumtildagi tasdig'ini ta'minlash maqsadida Sketch Engine platformasidagi o'zbek korpusiga murojaat qilindi, unda **uyat** so'rovi bo'yicha 133 ta, **nomus** so'rovi bo'yicha 24 ta konkordans qatori qo'lda tahlildan o'tkazildi. Tadqiqot sof sifat xarakteriga ega bo'lib, miqdoriy umumlashmalar maqsad qilinmagan. Metaforik birliklar MIP protsedurasi yordamida verifikatsiya qilindi. Ushbu protseduraga muvofiq, matndagi har bir leksik birlikning kontekstual ma'nosi uning asosiy, ya'ni jismoniy va konkret ma'nosi bilan chog'ishtiriladi. Ikkala ma'no o'zaro farqlangani holda, kontekstual ma'no asosiy ma'no fonida anglashilsa, birlik metaforik deb e'tirof etiladi [10; 1–31-b.].

Tahlilni lug'aviy ta'riflardan boshlash maqsadga muvofiqdir, zero izohli lug'at ikki freym o'rtasidagi farqni yashirin tarzda allaqachon qayd etgan. **Nomus** leksemasining etimologiyasi alohida e'tiborga molik bo'lib, u arab tili vositasida yunoncha **nomos**, ya'ni **qonun** so'ziga borib taqaladi. Binobarin, norma sloti ushbu konseptning ichki shaklida muhrlangan. Lug'at nomusning birinchi ma'nosini kishining o'z obro'sini ulug'lash va ardoqlash his-tuyg'usi tarzida, **oriyat**, **diyomat** va **vijdon** qatorida izohlaydi. Demak, qadriyat semantikasi birinchi o'ringa chiqarilgan, hijolat tortish hissi esa ikkinchi ma'no maqomida beriladi. **Uyatning** birinchi ma'nosi **o'z qilmishi va noo'rin xatti-harakatidan hijolatlik hissi** deb ta'riflangan bo'lib, sabab slotining subyekt o'z qilmishi bilan to'ldirilishi lug'atning o'zida ochiq ifodalangan. Ikkinchi ma'no uyatni axloq-odob talabiga zid ish va xatti-harakatning o'zi sifatida talqin etadi, ya'ni leksema holat nomidan harakat nomiga metonimik ko'chishni boshdan kechirgan. Ikki lug'aviy maqola o'zaro sinonimik havola bilan ham bog'langan: **uyat** izohida **nomus**, **nomus** izohida esa **uyat-andisha**, **sharm**, **hayo**, **or** keladi. Mazkur holat ikki konseptning yagona axloqiy-hissiy makonga mansubligini, farq ma'no yadrosida emas, balki freym qurilishida ekanligini dalillaydi.

Uyat freymida subyekt yakka shaxs sifatida namoyon bo'lib, holatni bevosita o'zi boshdan kechiradi. Kuzatuvchi elementi esa ushbu freymning eng faol qismi hisoblanadi. Korpus materiali kuzatuvchining **el**, **mahalla** va **kattalar** timsolida izchil verballashuvini ko'rsatadi. Masalan, **qiz bola tizzasini ko'rsatib yursa, uyat bo'ladi, mahalladagilar nima deydi** tipidagi kontekstlarda norma buzilishi ijtimoiy ko'z bilan yonma-yon keladi. Sabab elementi subyektning o'z xatti-harakati orqali me'yorning buzilishi bilan to'ldirilsa, his holati o'tkinchi va reaktiv xarakter kasb etadi, oqibat elementi esa yuzni yashirish, davradan chetlanish va isnoddan qochish ko'rinishida voqelanadi. Korpusdagi **endi bu uyat ish mahalla, qishloq yoki shahar miqyosida bo'lishini o'ylab ko'ring** singari qatorlar oqibatning ijtimoiy miqyos bilan o'lganishidan dalolat beradi, ya'ni isnod qancha keng tarqalsa, holat shuncha og'ir konseptuallashadi. Xalq maqoli **betamizda bet bo'lmas, bezorida uyat bo'lmas** uyatni insoniylik o'lchovi darajasiga ko'taradi. Maqolda **bet** leksemasining **uyat** bilan yonma-yon kelishi quyida ko'riladigan somatik ko'rsatkichlar tizimiga ishora qiladi.

Nomus freymi tubdan o'zgacha qurilgan. Subyekt elementi yakka shaxsdan oila, urug' va jamoaga kengayadi. Buni korpusdagi **xalqimiz oilani mo'tabar deb biladi, oila sha'nini o'zining nomus va ori kabi himoya qiladi, yot nazar, yomon ko'zlardan asrab-avaylaydi** qatori yaqqol tasdiqlaydi. Kuzatuvchi ushbu freymda baho beruvchi emas, balki tahdid soluvchi **yot nazar** maqomida keladi. Sabab

elementi ko'pincha tashqi tajovuz yoki yaqin kishining qilmishi bilan to'ldiriladi. Lug'atda qayd etilgan **nomusga tegish** birikmasining zo'rlik ma'nosi tashqi tajovuzni ko'rsatsa, Oybek qalamiga mansub **bir daf'a qizimni o'tga tashladim, eldan, yurtdan nomus qildim** misoli yaqin kishi qilmishini va el-yurt qiyofasidagi kuzatuvchini bir nuqtada jamlaydi. Subyekt o'zi aybdor bo'lmagan holatda ham nomus his qilishi mumkinligini korpusdagi **men unga bular haqida aytmadim, negadir nomus qildim** misoli tasdiqlaydi. His holati o'tkinchi kechinma emas, balki barqaror qadriyat tuyg'usi sifatida yashab, **or** hamda **g'urur** bilan qo'shilib keladi. Oqibat elementi esa himoya va tiklash harakatida ifodalanadi, eng keskin nuqtada **o'lim nomussiz hayotdan afzal** deb baholanadi. Ikki freymning qiyosiy manzarasi quyidagi 1-jadvalda umumlashtirildi.

Freym elementi	UYAT freymi	NOMUS freymi
Subyekt	yakka shaxs, holatni bevosita boshdan kechiruvchi	shaxsdan oila, urug' va jamoaga kengayadi, qadriyat egasi sifatida konseptuallashadi
Kuzatuvchi	faol va majburiy, el, mahalla, kattalar timsolida verballashadi	yot nazar va tahdid manbasi sifatida talqin etiladi, baho beruvchidan ko'ra tajovuzkor rolida
Sabab	subyektning o'z xatti-harakati orqali norma buzilishi	ko'pincha tashqi tajovuz yoki yaqinlarning qilmishi, subyekt aybdor bo'lmasligi ham mumkin
His holati	o'tkinchi reaktiv holat, fiziologik korrelyatlari kuchli	barqaror qadriyat tuyg'usi, his holati ko'proq or va g'urur bilan qo'shilib keladi
Oqibat	yuzni yashirish, chetlanish, isnodan qochish	himoya, qasos yoki tiklash harakati, ba'zan o'limni afzal bilish

Freym yondashuvining asosiy afzalligi shundan iboratki, u konseptni atovchi leksema ishtirok etmagan parchalarni ham tahlil doirasiga tortish imkonini beradi. Frazologik lug'at material bunday ko'rsatkichlarning butun boshli somatik tizim sifatida kodlashtirilganini namoyon etdi. Tizim markazida yuz va bet somatizmlari turadi: **yuzi yerga qaradi, yuzi shuvut bo'ldi, yuziga qon yugurdi, yuzi chidamadi** singari iboralar uyat holatini yuz orqali tasvirlaydi. Bosh somatizmi **boshini bukmoq, boshini xam qilmoq, boshini ko'tarib yura olmaslik** iboralarida, ko'z somatizmi esa **ko'ziga tik qaray olmaslik** iborasida ishtirok etadi. E'tiborlisi shundaki, lug'atning o'zi ushbu iboralarni o'zaro sinonim va variant sifatida havolalashtirgan. Binobarin, ko'rsatkichlar tizimi leksikografik jihatdan ham tasdig'ini topgan. Quyidagi 2-jadvalda iboralar freym elementlariga taqsimlab berildi.

Freym elementi	Frazeologik ko'rsatkichlar
Fiziologik korrelyat	<i>yuz(i)ga qon yugurdi; yuz(i) chidamadi</i>
Oqibat, gavda holati	<i>bosh(i)ni bukmoq; bosh(i)ni xam qilmoq; yerga qaramoq; ko'z(i)ga tik qaray olmaslik; bosh(i)ni ko'tarib yura olmaslik</i>
Oqibat, yashirinish istagi	<i>yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik (va variantlari)</i>
Kuzatuvchi va ijtimoiy baho	<i>el oldida yuz(i) shuvut bo'ldi; yuz(i)ga qorakuya surtmoq; nom(i)ni bulg'amoq; nima degan odam bo'lmoq</i>
Ijobiy qutb	<i>yuz(i) yorug' bo'ldi; uyaladigan joyi yo'q</i>
Inkor qutbi, uyatsizlik	<i>bet(i) yo'q; bet(i)ni qattiq qilib; bet(i) chidaydi; yuzingda ko'zing bormi demay; uyalmay-netmay</i>

Jadvaldan ikki muhim xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, freym ijobiy qutbga ham ega: **yuzi yorug' bo'ldi** iborasi uyaladigan joyi yo'q, olqishlashga loyiq holatni ifodalab, lug'atda **yuzi shuvut bo'ldi** iborasiga antonim sifatida beriladi. Demak, uyat yaxlit baho shkalasining salbiy qutbi sifatida yashaydi. Ikkinchidan, til uyatning yo'qligini ham alohida kodlashtirgan: **beti yo'q** iborasi uyatsiz kishini go'yo betdan mahrum shaxs tarzida tasvirlasa, **betini qattiq qilib** va **yuzingda ko'zing bormi demay** iboralari uyat-andishani pisand qilmaslikni ifodalaydi. Bularning barchasida bet va yuz uyatning tana makoni sifatida konseptuallashadi, ya'ni ko'rsatkichlar Z. Kövecses ta'riflagan fiziologik metonimiyaning[5] freym darajasidagi davomi hisoblanadi. Badiiy matnda ana shu ko'rsatkichlardan birining kelishi leksemasiz parchada ham freymni ishonchli faollashtiradi. S. Anorboyev qalamiga mansub **buni**

Ziyodaxon ham sezib, yerga qaradi misolida uyat soʻzi ishtirok etmagani holda holat toʻliq anglashiladi.

MIP protsedurasi ikki konseptning metaforik asoslarida jiddiy farq mavjudligini tasdiqladi. Uyat uchun markaziy metafora **UYAT OʻLIMDIR** qolipidir. Korpusdagi **xalqimizda uyat oʻlimdan qattiq degan gap bor** qatorida **qattiq** leksemasining kontekstual maʼnosi uning asosiy jismoniy maʼnosidan farqlanadi va ayni shu asosiy maʼno fonida anglashiladi. Binobarin, birlik protsedura mezonlariga koʻra metaforik maqomga ega. Bundan tashqari, uyat mavhum fazilatni buyum tarzida tasavvur qiluvchi qoliplarda ham keladi: **uyat, andisha degan fazilatlarini goʻyo bozorda koʻtara sotib yuborganday** misolida holat sotiluvchi mol sifatida konseptuallashgan. Nomus freymida esa uch metaforik qolip yetakchilik qiladi. **NOMUS POK NARSADIR** qolipini **nomusni bulgʻamaslik** va **or va nomus pok boʻlmagan yerda** singari birikmalardagi **bulgʻamoq** hamda **pok** leksemalarining metaforikligi tasdiqlaydi. **NOMUS BOYLIKDIR** qolipi **boylik ketsa ketsin, or-nomus ketmasin** hamda **yigitning xuni yuz yilqi, or-nomusi ming yilqi** maqollarida qadriyatning mol-mulk oʻlchovida berilishi orqali namoyon boʻladi. **NOMUS OʻLIMDIR** qolipi esa **nomus yarim oʻlim** va **odamni nomus oʻldirar** birliklarida eng yorqin ifodasini topgan. Koʻrinadiki, uyat metaforalari holatning ogʻirligini taʼkidlasa, nomus metaforalari qadriyatning moddiy qiymatini va himoyaga muhtojligini birinchi oʻringa chiqaradi.

Frazeologik material MIP tekshiruvidan oʻtgan yana ikki qolipni yuzaga chiqardi. Birinchisi yoʻnalish metaforasidir. G. Lakoff va M. Jonson koʻrsatgan vertikal oʻq[6] uyat freymida izchil amal qiladi: **boshini bukmoq, boshini xam qilmoq, yerga qaramoq** iboralarida uyat va sharmandalik pastga yoʻnalish bilan bogʻlansa, **boshini koʻtarib yurmoq** hamda **yuzi yorugʻ** iboralarida obroʻ yuqoriga yoʻnalish va yorugʻlik bilan uygʻunlashadi. Binobarin, tilda **UYAT PASTDIR** va **OBROʻ YUQORIDIR** qoliplari amal qiladi. Ayni oʻqning davomi sifatida **yetti nomusini yerga bukmoq** va **nomusi bukildi** iboralarini **NOMUS TIK NARSADIR** qolipini beradi: qadriyat tik holatda saqlanadi, bukilishi esa uning toptalishini anglatadi. Ikkinchisi yashirinish metaforasi boʻlib, **yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik** iborasi va uning lugʻatda qayd etilgan oʻndan ortiq varianti uyalgan kishining kuzatuvchi koʻzidan butunlay yoʻqolish istagini ifodalaydi. Bitta iboraning shuncha variantda yashashi mazkur obrazning milliy tafakkurdagi faolligini koʻrsatib, kuzatuvchi slotining freymdagi markaziy oʻrnini metafora darajasida tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, uyat va nomus konseptlari yagona axloqiy-hissiy makonning ikki xil qurilgan freymi sifatida namoyon boʻladi. Uyat freymi yakka subyekt, faol kuzatuvchi va oʻtkinchi reaktiv holat atrofida tashkil topgan boʻlsa, nomus freymi jamoaviy subyekt, qadriyat va himoya harakati atrofida shakllangan. Besh elementli model mazkur farqni tekshiriluvchi shaklda qayd etish imkonini berdi. Somatik freym koʻrsatkichlari tizimining lugʻatda sinonimik havolalar vositasida kodlashtirilgani aniqlanib, tahlil doirasi leksema ishtirok etmagan badiiy parchalargacha kengaytirildi. Olingan natijalar mazkur konseptlarning boshqa tillarga tarjimada qanday qayta qurilishini oʻrganish uchun zarur tayanch nuqtani hozirlaydi hamda keyingi tadqiqotlarda **hayo** va **andisha** freymilarini ayni model asosida ochishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Abduraimova B.I.Q. Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatda konsept tushunchasi // Scientific Progress. – 2022. – Vol. 3. – No. 2. – B. 1223–1228.
2. Fillmore Ch.J. Frame semantics // The Linguistic Society of Korea (ed.). Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – P. 111–137.
3. Jumanazarova C. Translating linguocultural units: challenges, strategies, and cultural mediation // Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2025. – Vol. 41. – P. 106–112.
4. Хамдамзода Л.Х., Носиров Л.Х. Лингвокультуры «гири» и «андиша» (на материале японского и узбекского языков) // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – T. 2. – № Special Issue 22. – С. 222–228.
5. Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
7. Makhmudova M. Oʻzbek frazeologizmlarida “Uyat” konseptining ifodalanishi // In Science: Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. – 2024. – № 2(4). – B. 196–201.
8. Oʻzbek tili frazeologik lugʻati [Matn]: lugʻat / Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova, I. Oʻrazova, K. Rixsiyeva. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.
9. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildlik / A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
10. Praggelaz Group. MIP: a method for identifying metaphorically used words in discourse // Metaphor and Symbol. – 2007. – Vol. 22. – No. 1. – P. 1–39.